



UDK:915:631:333.1(045)

Dilnoza NAVOTOVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: d.navotova@gmail.com

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti F.T.Rajabov taqrizi asosida

QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHNI TADQIQ QILISHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosiy e'tibor yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishni tadqiq qilishning nazariy-uslubiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning nazariy uslubiy masalalari hamda ilmiy amaliy ahamiyatiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, tuproq, yer resurslari, agroiklimiy resurslar, tarixiy yondoshuv, xaritalashtirish, geografik taqqoslash, statistik va modellashtirish, tabiiy agrar imkoniyat.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE RESEARCH OF AGRICULTURAL LAND USE

Abstract

This article is devoted to the theoretical and methodological aspects of studying the use of land resources in agriculture, which focuses on theoretical and methodological issues and the scientific and practical significance of studies of the territorial organization of agriculture.

Keywords: Agriculture, soil, land resources, agroclimatic resources, historical approach, mapping, geographical comparison, statistics and modeling, natural agrarian opportunity.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена теоретико-методологическим аспектам изучения использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве, в которой основное внимание уделяется теоретико-методологическим вопросам и научно-практической значимости исследований территориальной организации сельского хозяйства.

Ключевые слова: земледелие, почва, земельные ресурсы, агроклиматические ресурсы, исторический подход, картографирование, географическое сравнение, статистика и моделирование, естественные аграрные возможности.

Kirish. Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, dehqonchilikning sug'orishga asoslanganligi, sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik mahsulotlarining 90 foizdan ko'prog'ining ishlab chiqarilishi, suv resurslarining cheklanganligi, ekologik vaziyatning murakkabligi, demografik vaziyatning o'ziga xosligi yer resurslaridan foydalanish samaradorligini muttasil oshirib borishni taqozo etadi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tabiiy-iqtisodiy hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va arzonlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish yer resurslaridan foydalanish samaradorligining oshishiga olib keladi. Ekinlarning hududlar bo'yicha joylashtirilishi alohida iqtisodiy hududlar bo'yicha ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi darajasini oshirishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining chuqurlashuvi esa tarmoqda fan-texnika taraqqiyoti natijalarini joriy etishga olib keladi. O'z navbatida ixtisoslashuvning rivojlanishi ishlab chiqarishning o'sishuviga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishni geografik tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi va shu asosda ilmiy tadqiqot ishida metodlardan foydalanish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- tadqiqot doirasida adabiyotlar tahlilini olib borish;

- qishloq xo'jaligini o'rganishda geografiya uchun an'anaviy hisoblangan usullardan foydalanish mexanizmini tadqiq etish;

- yer resurslaridan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi, hududiy tashkil etish xususiyatlari va vujudga kelgan muammolarni o'rganish turli metod yoki usullar, yondashuvlar yordamida amalga oshirish.

Geografik tadqiqotlarda "hududiy tashkil etish" iborasi ko'p ishlatiladi. Qishloq xo'jaligining (Akramov, 1974; Rakitnikov, 1970; Ivanov, 1975; Kryuchkov, 1978; Ro'ziyev, 1986; Abdullayev, 1988; Ahmadaliyev, 2007), ishlab chiqarishni (Kalashnikova, 1990), tabiatdan foydalanishni (Mins, 1972; Runova, 1993), jamiyatni (Saushkin, 1973, 2001; Xorev, 1971; Chistobayev, 1990) hududiy tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilgan. A.Soliyev (1999) geografiya fanida ko'p ishlatiladigan "joylashtirish", "joylanish" va "hududiy tashkil etish" tushunchalarining o'xshashlik va farq qiladigan tomonlarini aniqlashga harakat qilgan [5, 6, 7, 10, 11].

Bevosita ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilmiy g'oyalar dastavval Germaniyada yaratilgan. Nemis mulkdori Iogan Genrix Tyunen XIX asrning 20-30-yillarida o'zining qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish bo'yicha ilmiy fikrlarini maxsus asarlarida bayon qildi. Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jalik

mahsulotlarini etishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g'oyani amalga tatbiq qilish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar – Meklenburgdagi Rostok) o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo'yilgan mablag' bilan olingan daromad nisbati bilan belgilanadi [2].

I.Tyunenning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib yerdan foydalanish masalalarini ko'tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga "iqtisodiy makon" tushunchasini kiritdi. U o'zining modelida mahsulotning bozorga –iste'molchiga arzon va sifati buzilmagan holda yetkazib berishga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, I.Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning yoki qishloq xo'jaligi geografiyasining dastlabki ilmiy asosini yaratuvchisi bo'ldi [2, 6].

V.V.Dokuchayev tuproqqa quyidagi ta'rifni bergan: "tuproq – iqlim, organizmlar, grunt, mahalliy relyef va o'lkaning yoshi kabi omillarning birgalikdagi faoliyati ta'sirida paydo bo'ladigan tabiiy-tarixiy hosiladir" (Dokuchayev, 1951). Bu ta'rif tuproqning hosil bo'lish shart-sharoitlarini aniq tavsiflaydi. Yer esa, quruqlikning faol, genetik mustaqil ustki qatlami sifatida o'ziga xos iqlim, tuproq qatlami, alohida maydonlar relyefi va shakllarini, ularni hosil qiluvchi omillarning barchasini o'zida mujassamlashtiradi. Bundan yer tushunchasining tuproqdan ancha keng ekanligi ko'rinib turibdi [1, 7].

"Yer resurslari" tushunchasining mazmuni bir qator ilmiy adabiyotlarda ochib berilgan [3, 11]. Ushbu ishlarni umumlashtirib, Y.Axmadaliyev yer resurslariga quyidagicha ta'rif bergan: Yer resursi bu – yer fondining tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos tuproq sifati, iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida undan asosan zarur mahsulotlar yetishtirishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi [11]. Bu ta'rifdan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, yer ko'p funksiyali hisoblanib, bir vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda asosiy mehnat vositasi va predmeti bo'lishi bilan bir qatorda aholi, sanoat, uy-joy fondi, rekreatsiya zonalari va boshqalarni hududiy tashkil etishda yetakchi sanaladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va ixtisoslashuvini iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproqning fizik va kimyoviy xossalari ko'p jihatdan ifodalab beradi. Iqlim salohiyati, ya'ni iqlim sharoiti va resurslari qishloq xo'jaligi rivojlanishini belgilaydigan muhim tabiiy omillardan biridir. P.I.Koloskov (1971) iqlimni muhitning (geografik qobiqning) meteorologik komponenti, agroiklimni esa agronomik muhitning meteorologik komponenti deb hisoblaydi [7].

Keyinchalik agrogeografiyaning nazariy masalalari, qishloq xo'jaligini rayonlashtirish, ishlab chiqarishning hududiy tizimlari va agrosanoat majmualari bo'yicha V.Chetirkin, Z.Akramov, K.Lapkin, A.Ro'ziyev, Q.Abirqulov, O.Abdullayev, M.Yusupov, A.Sodiqov va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Yangi yerlar, cho'l va tog' oldi mintaqalarini o'zlashtirish va shu asosda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yer-suv resurslaridan foydalanish, suv omborlarini qurish va sug'orma dehqonchilik, mulkchilik shakllarida qishloq xo'jaligining shakllanish masalalari R.Hodiyev, T.Egamberdiyev, YE.Umarov, S.Saidkarimov, S.Islomov, G'.Ashurov, Z.Hoshimov, Sh.Azimov, X.Zolotarev, K.Qurbonov, B.Shotursunov, T.Shoto'rayev, M.Fayzullayev, F.Rajabov, J.Namozovlarning ishlarida o'rganilgan [11, 12, 13, 14].

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish unumdorligini baholash bugungi kun talabidan kelib chiqib, o'ziga xos tamoyillar asosida olib boriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'orib dexqonchilik qilinadigan, ayniqsa sug'orishga alohida mablag' (nasos yordamida sug'orish uchun) sarflanadigan sharoitda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi iqtisodiy-ekologik mezonlar orqali baholanishi zarur.

Agroiqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va xududiy tashkil etilishiga eng avvalo, tabiiy omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy omillar (hudud geologiyasi va litologiyasi, relyef, iqlim, yer va suv resurslari, tuproq turlari va hokazolar) qishloq xo'jaligi sohasining joylanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, bu jarayonni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishda tuproq asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tuproqqa xo'jalik nuqtai nazaridan baho berishda, yalpi olingan mahsulotga qarab emas, balki mahsulot qiymati va sarf-harajat miqdori nuqtai nazaridan baho beriladi.

Materiallar va metodlar. Umuman olganda, qishloq xo'jaligini o'rganishda geografiya uchun an'anaviy hisoblangan usullardan foydalaniladi. Masalan, har qanday geografik tadqiqot albatta tarixiy (retrospektiv) yondashuv asosida olib borilishi kerak. Bu usul, xususan cho'l hududlarini o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishini, cho'l muhitining avvalgi va hozirgi holatini tahlil qilish va baholash yaxshi natijalar beradi. Bunda yerlarni o'zlashtirish davri ma'lum bosqichlarga bo'linadi. Eng muhimi, har qaysi bosqich – tarixiy davr o'zlashtirish ko'lam, maqsadi, irrigatsiya infratuzilmasini barpo etish, aholi joylashuvi va migratsiyasi kabilar bilan boshqa bosqichlaridan farq qilishi shart. Jumladan, Mirzacho'l, Qarshi va Surxon-SHerobod cho'llarini o'zlashtirish qishloq xo'jaligini rivojlantirish asosida paxta maydonlarini kengaytirish, mintaqani suv resurslari bilan ta'minlashga xizmat qiladigan irrigatsiya inshootlari barpo etish, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarni tashkil etish bosqichlarida olib borildi.

Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyatida yerlarning o'zlashtirilishi respublikada va unga tutash bo'lgan mintaqalarda amalga oshirilgan ishlar bilan taqqoslanadi va bu geografik taqqoslash usulining mohiyatini anglatadi. Bu borada o'zimizning Mirzacho'l cho'lining o'zlashtirilishi, Tojikistonning Vaxsh vodiysi, Turkmanistonning Tajan-Murg'ob vohasining o'zlashtirish tajribalarini o'rganish muhim hisoblanadi va shu asosda Qarshi cho'lini o'zlashtirilishining o'ziga xos geografik jihatlarini aniqlanadi.

Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni kartalashtirish va ularni tahlil qilish orqali ham o'rganilayotgan obyektga yetarlicha daliliy ko'rgazmali ta'rif berish mumkin. Ularning yordamida mavjud qishloq xo'jaligi haqidagi ma'lumotlarni qat'iy hududiy kesmada kartaga qayd etish orqali to'plash va yaxlit tizimga solish yotadi, bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi haqidagi har qanday tavsifni, hududning mos qismidagi tabiiy sharoit bilan solishtirish, qishloq xo'jaligi ta'rifini tabiiy muhit turlariga qiyoslash imkonini yaratadi.

Janubiy O'zbekiston, xususan, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari – paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, polizchilik, uzumchilik, bog'dorchilik bilan birga, chorvachilikning asosiy ixtisoslashgan tarmoqlar zaminida tarkib topgan. Yer-suv resurslaridan samarali foydalanish negizida qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun mo'ljallangan yirik masshtabli turkum kartalarni tuzishda asosiy e'tibor ushbu sohaning o'zigi xos mintaqaviy xususiyatlariga qaratilish lozim.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashda matematik-statistik va modellash usulining ham ahamiyati katta. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi natural ko'rsatkichlar – bu hosildorlik va yalpi mahsulot bo'lib, yerdan intensiv foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va bu holat qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning tarkibidagi ulushini aniqlash yordamida sun'iy sug'orma (mashina nasoslar yordamida) dehqonchilik qilinadigan rayonlarda yerdan foydalanish

ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, chunki mintaq boshqa hududlardan sun'iy sug'orma dehqonchilikda sarf-xarajatlar miqdori elektr energiyani iste'mol qilish evaziga ko'p bo'lishi bilan farqlanadi. Bu esa o'z-o'zidan intensiv sug'orma dehqonchilik tizimini takomillashtirish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini dolzarb qilib qo'yadi. Sababi, yer resurslarining holatini hisobga olmasdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish salbiy oqibatlariga olib keladi.

Yuqoridagilardan tashqari, hududlarning tabiiy-agrar imkoniyatini (TAI) aniqlash ham agrogeografik tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, tabiiy sharoit va resurslar qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylanishiga cheklovchi ta'sir ko'rsatish hollari mavjud. Bunday omillarning ayrimlarini (tuproqning suv, fizik va kimyoviy xossalari) antropogen boshqarish yoki maqsad yo'lida o'zgartirish mumkin bo'lsa, boshqalarini (iqlim, relyef) boshqarish imkoni yo'q. Shuningdek, ma'lum resursning kam bo'lishi, yetishmasligi emas, balki meyordan ortiq bo'lishi, mujassamlashuvining yuqori bo'lishi (suv, issiqlik) ham ba'zan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va joylashtirishni cheklaydi. Sababi, qishloq xo'jaligining muayyan tarmog'i uchun qulay bo'lgan sharoit boshqa tarmoqlar uchun noqulay bo'lishi tabiiy, masalan, yaylov chorvachiligi yoki lalmikor dehqonchilik uchun qulay sharoit, sug'orib dehqonchilik qilishga mutlaqo yaroqsiz bo'lishi aniq. Shu bois ham tabiiy-agrar imkoniyatni baholash qiyin va murakkab masala hisoblanib, har bir hududiy obyekt va qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun baholash ko'rsatkichlari va uslubiyotini alohida ishlab chiqish talab etiladi [11]. Ushbu TAI baholash ishlarini Y.I.Ahmadaliyev Farg'ona vodiysi misolida amalga oshirgan. Bunday baholash ishlarini Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun yer resurslari tabiiy-agrar imkoniyatini baholashda ham qo'llash mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib yer resurslaridan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi, hududiy tashkil etish xususiyatlari va vujudga kelgan muammolarni o'rganish turli metod yoki usullar, yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi. Ular orasida geografiya uchun eng muhim hisoblangan tarixiy taqqoslash, xaritalashtirish, rayonlashtirish kabilarning nazariy-uslubiy ahamiyati katta. Ma'lumki, yer barcha boyliklar, har qanday mamlakat yoki mintaq ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlanishining tabiiy asosi hisoblanadi. Ammo aholi joylanishi, xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi uchun faqat yer emas, balki uning ustki unumdor qatlami, aniqrog'i tuproq katta mazmunga ega. Aynan tuproq suv (namlik) bilan birga muhim agroiqlimiy resurs vazifasini bajaradi. Suv zaxiralarining mavjudligi unumdor tuproq bor bo'lgan hududlarda sug'orma dehqonchilik rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Зворыкин К.В. Агрогеографические изучение земельных ресурсов //Вопросы географии. Сб. 124. – М., 1984. – с. 11-24.
2. Иванов К.И. Территориальные системы общественного производства. – М.: Мысль, 1975. – 272 с.
3. Ковда В.А. Проблемы опустынивания и засоления почв аридных регионов мира. М.: Наука, 2008. – 415 с.
4. Колосовский Н.Н. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2006. –336 с.
5. Крючков В.Г. Территориальная организация сельского хозяйства. (Проблемы и методы экономико-географического исследования). – М.: Мысль, 1978. – 268 с.
6. Лапкин К.И. Размещение и специализация сельскохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1988. – 390 с.
7. Носонов А.М. Территориальные системы сельского хозяйства (экономико-географические аспекты исследования). – М.: Янус-к, 2001. – 324 с.
8. Ракитников А.Н. Избранные труды – Под ред. В.Г.Крючова. – Смоленск: Ойкумена, 2003. – 472 с.
9. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление. – Смоленск: Ойкумена, 2011. – 218 с.
10. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. – Toshkent: Kamalak, 2013. – 184 b.
11. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish geoeologiyasi. – T: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
12. Fayzullayev M.A. Janubiy O'zbekiston cho'l hududlarida qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy geografik omillari. Geog. fan. fals. dokt. ... dis. avtoref. – T., 2017. – 47 b.
13. Rajabov F.T. Fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibini takomillashtiri (Qashqadaryo viloyati misolida). Geog. fan. fals. dokt. ... dis. avtoref. – T., 2017. – 42 b.
14. Namozov J.A. Samarqand viloyati yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy geografik jihatlari. Geog. fan. fals. dokt. ... dis. avtoref. – T., 2021. – 45 b.